O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

№ 18 (16424)
2021-YIL
2-IYUN,
CHORSHANBA

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ
YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU
@YOSHLAROVOZIUZ
@YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## QARSHIDA "TALABALAR BAHORI – 2021" FESTIVALI BO'LIB O'TDI

***Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Qarshi filialida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi doirasida "Talabalar bahori – 2021" festivali o'tkazildi.***








Tadbirni viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Rustam Yo'ldoshev kirish so'zi bilan ochib, qatnashchilarga omad va zafarlar tiladi.

Festivalda "Agrozamin" va "Yetti yurak" jamoalari 8 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdi. Milliy folklor kuy-qo'shiqlarga monand raqslar barchaga birdek manzur bo'ldi. Jamoalarning "Quvnoqlar va zukkolar" namoyishi oddiy kunlik turmush tarzimizdagi holatlarni hazilnoma ko'rinishda olib chiqilgani bilan tomoshabinlar qalbida unutilmas taassurotlar qoldirdi. Talabalar o'z mahoratini nafaqat ilm-fanda, balki san'at, sport sohalarida ham namoyon etdi.

Festival yakuniy natijalariga ko'ra, mutlaq g'oliblik "Yetti yurak" jamoasi yoshlariga nasib etdi.

**O'zA fotomuxbiri Jamshid NORQOBILOV olgan suratlar.**

MUNOSABAT

## OCHIQLIK-OSHKORALIK BO'LGAN JOYDA KORRUPSIYAGA QO'L URISH IMKONSIZ

***Bugungi kunda xalqimiz turmush farovonligini oshirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalambor, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotda qo'llanilishi, natijadorligi ortiqcha byurokratik to'siqlar vujudga kelmasligi va xalq manfaatlariga xizmat qilishi bilan bevosita bog'liqdir.***

Ammo jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir soha emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib kelayotgan islohotlarga to'g'anoq bo'lishi, davlatni ich-ichidan yemirishi mumkin. Bu illat korrupsiya va poraxo'rlikdir. Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavflidir.

Shu bois davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat ham "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"-gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi. Natijada korrupsiyaga qarshi kurashish O'zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Buni so'nggi yilllarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar,



korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi muhim ahamiyatga ega.

Davomi 4-sahifada.

## YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

*O'tgan hafta hududlardagi yoshlar uchun yangiliklarga, imkoniyatlarga boy bo'ldi. Xususan, 28-may sanasida Xorazm viloyati Urganch shahridagi "Yoshlar markazi"da Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Sa'dullayev bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqot avvalida Alisher Sa'dullayev telegram kanalida qoldirgan postda "Uchrashuv ochiq, hech qanday cheklovlar yo'q. Agarda uchrashuvda qatnashishda qandaydir sun'iy to'siqlar bo'lsa yoki kela olmasangiz, murojaatingizni ushbu post ostidagi izohlarda qoldirsangiz bo'ladi. Albatta javob beraman, nasib qilsa", degan edi. Shundan so'ng Alisher Sa'dullayevga turli mavzudagi ko'p sonli murojaatlar kelib tushgan.*




### O'RINLI TAKLIF

Yoshlarga imkoniyatlar eshigini ochishga ko'maklashuvchi ochiq muloqotda Abdurasul Qurbonboyev respublikamizning barcha hududlarida kino-studiya filiallarini ochish bo'yicha taklif bildirdi.

Bu taklif qo'llab-quvvatlanib, agentlik rahbari tashabbusi bilan agentlikning Xorazm viloyati boshqarmasida shu yil 30-iyun kuni tashkil qilinadigan Yoshlar Media markazida kino-studiya o'z faoliyatini yuritishi aytib o'tildi.

Davomi 2-sahifada.

# YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

### KELAJAK UCHUN SARMOYA

Yana bir faol yosh Ziyoda Zaripova yozgi ta'til paytida magistrlik tadqiqotini Germaniya Federativ Respublikasida o'tash uchun borib kelish va turar joy xarajatlarini qoplashda amaliy yordam so'radi. Bunga javoban, agentlikning Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig'i Sardor Palvanovga talaba bildirgan loyihani o'rganib, Xorazm yoshlarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan mablag' ajratilishi to'g'risida topshiriq berildi.

### YANGI ISLOHOTLAR

"Qizlar ovozi" klubining Xorazm viloyati koordinatori Shahnoza Qalandarova "Qizlar ovozi" klubi nizomini o'zgartirib, uni Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi tashkilotga aylantirish bo'yicha amaliy yordam so'radi. Alisher Zafarovich "Qizlar ovozi" faoliyati bo'yicha aniq yo'nalish berdi va uch kun muddat ichida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan "Qizlar ovozi" koordinatorlari bilan ZOOM platformasi orqali kengaytirilgan yig'ilish o'tkazilishini ta'kidladi.

Shahnoza Qalandarova uchrashuv haqida shunday deydi:

— Bu galgi uchrashuvda judayam og'riqli muammolar o'rtaga tashlandi. Misol uchun, kimdir chet tillari bo'yicha orom-



goh tashkil qilmoqchi, unga yordam kerak, kimdir tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi, lekin necha oylardan beri kredit ololmayapti, yana kimdir "Temir daftar"ga kirgan oilalar farzandlarini bepul o'qitadigan o'quv makaz ochmoqchi, unga bino va moddiy tomondan yordam kerak. Eng ahamiyatlisi nimada, bilasizmi, murojaatlarning hamma-hammasini Alisher Zafarovichning shaxsan o'zi eshitib, kerak bo'lsa, bog'lanish uchun telefon raqamlarigacha yozib olib, "Siz bilan o'zim bog'lanaman", dedi. Albatta, bunday e'tibordan so'ng yoshlar yanada shiddatli, shijoatli bo'lishga intilishadi. Bundan ko'rinadiki, yoshlar e'tibordan mamnun!

Shuningdek, onlayn murojaatlarning ko'pchiligi ta'lim, kutubxona hamda turizm masalalariga qaratilgani kelajak egalarining yurtimizni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shayotganidan dalolat beradi.

### QIZG'IN UCHRASHUVLAR DAVOM ETMOQDA

Yoshlar ishlari agentligi rahbari bilan ko'pchilik muammolar yechim topayotgan bir paytda Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumani "Yoshlar markazi"da Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisining birinchi o'rinbosari Shavkat Zayniddinov hamda Qoraqalpog'iston kengashi raisi Murat Kamalov yoshlar bilan uchrashuv tashkillashtirdi.



— Bunday uchrashuv, kechalar, tadbirlar nafaqat boshlang'ich tashkilot yetakchilari, balki sardorlar, uyushmagan yoshlar uchun ham tez-tez tashkil qilinishi kerak, deb o'ylayman, — deydi Yoshlar ishlari agentligi Beruniy tuman bo'limi mutaxassisi Temur Matyakubov. — Shavkat Zayniddinov bilan suhbatda ko'pchilik yetakchilar qatori men ham harakat, mehnat, shijoat bilan katta marralarni zabt etish mumkinligini his qildim. Boshlang'ich Tashkilot ish faoliyatini yanada rivojlantirish, keyingi o'quv yilidan maktab sardorlari bilan birgalikda yangi loyihalar tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha aniq rejalar tuzildi. Boshlang'ich tashkilot yetakchilari ko'plab takliflar bildirdi. Xususan, 30-maktab yoshlar yetakchisi "Ajdodlar merosi – kelajak poydevori" ko'rik-tanlovini tashkil qilish, yoshlar yetakchilari hamda maktab sardorlarini rag'batlantirib borish, o'quvchi soni 1000 nafardan ortiq bo'lgan maktablarga yana bir yoshlar etakchisi shtatini berish va shu kabi ko'plab takliflar bildirildi. Shavkat Zayniddinov o'zi ham sardor, yetakchi bo'lgani haqida alohida ta'kidladi. Shu bilan birga, o'rta-maxsus ma'lumotli yoshlar yetakchilarini oliy ta'limga jalb qilib maxsus sirtqi bo'limda o'qitish, 35 yoshga to'lgan yetakchilarni rahbarlik va yana boshqa lavozimlarga o'tkazish bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

Uchrashuv barchada katta taassurot qoldirdi.

Bu kabi uchrashuvlar hali davom etadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlar manfaatini himoya qilish hamda ularni qo'llab-quvvatlashdir.

**Komila HAMROYEVA,
Bahriddin USMONOV**

E'TIROF

# O'ZBEK AYOLI TIMSOLI

**Dilbar G'ulomova "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi**



O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida taniqli davlat va jamoat arbobi, olima, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi o'rinbosari Dilbar G'ulomovaning 80 yoshlik yubileyi munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, san'at va madaniyat arboblari, olimlari, diniy-ma'rifiy soha vakillari, Dilbar G'ulomovaning farzandlari, hamkasblari, shogirdlari va talabalar ishtirok etdi.

Dastlab Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva so'zga chiqib, mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularga munosib turmush sharoitini yaratish, haq-huquqlarini himoya qilish va iste'dodini rivojlantirish hamda xalqimizning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash, diniy ma'rifat sohasidagi ko'p yillik samarli faoliyati uchun Dilbar G'ulomova "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlangani to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonini o'qib eshittirdi.

— Taniqli davlat va jamoat arbobi, qadrli ustozimiz Dilbar G'ulomova haqiqiy ma'noda O'zbek ayoli timsoli, xotin-qizlarimiz uchun o'z mehnat faoliyati, ilmiy salohiyati, fidoyiligi va oilasiga sadoqati hamda farzandlar tarbiyasidagi jonkuyarligi bilan ibrat maktabini yaratdilar, — deydi tabrik so'zida Tanzila Norboyeva. — U kishi o'zining 40 yildan ortiq mehnat faoliyati davomida mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish, xotin-qizlarimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish borasida samarli va fidokorona xizmat qildi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jamoat va diniy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Sh.Minovarov ham Dilbar G'ulomovani samimiy qutlab, u kishining yurtimizda ma'naviyma'rifiy sohada ko'rsatayotgan fidokorona xizmatlari davlatimiz tomonidan yuqori baholanayotganini e'tirof etdi.

Dilbar G'ulomova 1941-yil 30-mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. Toshkent davlat to'qimachilik institutini tamomlagach, turli yillarda mas'uliyatli vazifalarda ishlab keldi. Jumladan, Toshkent viloyati mahalliy sanoat, maishiy xizmat va kommunal xo'jaligi kasaba uyushmalari qo'mitasi raisi, Toshkent viloyati kasaba uyushmalari kengashi raisi, Respublika xotin-qizlar qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari, rais, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari lavozimlarda, 2019-yildan buyon esa Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi o'rinbosari lavozimida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Dilbar G'ulomova davlatimiz tomonidan "Do'stlik", "Mehnat shuhrati" va "El-yurt hurmati" ordenlari bilan taqdirlangan.

Tadbirda shuningdek, Dilbar G'ulomovaning safdoshlari, shogirdlari va farzandlari ham so'z olib, ham davlat va jamoat ishlaridagi faolligi bilan, ham oilaga sadoqati, ro'zg'or tebratishdagi oqilaligi-yu farzand tarbiyasidagi namunasi bilan o'zbek ayoliga haqiqiy ma'noda ibrat bo'lib kelayotgan ustozlariga o'z hurmatini izhor etdi.

O'z navbatida Dilbar G'ulomova ko'rsatilgan e'tibor va hurmat uchun davlatimiz rahbari hamda xalqimizga o'z minnatdorligini bildirdi.

**Bahodir JOVLIYEV,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi matbuot kotibi**

# IQTIDORLI QIZLARNING INTELLEKTUAL LOYIHALARINI PATENTLASHTIRISHDA KO'MAKLASHILADI

**Mamlakatimizda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega ayollar soni 271 nafar, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega ayollar soni 1 411 nafarni tashkil etmoqda.**

Bu haqda Oliy Majlis Senati Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining majlisida aytib o'tildi. Yig'ilishda senatorlar, O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi a'zolari, Respublika yosh olimlar kengashi, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti hamda Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirok etdi.

Majlisda xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g'oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan innovatsion rivojlanish vazirining axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2020-yilda e'lon qilingan "Olima ayollar grantlari" amaliy va innovatsion loyihalar tanloviga xotin-qizlar tomonidan umumiy qiymati 1,7 trillion so'm bo'lgan jami 111 ta ilmiy loyiha taqdim etilgan. Dastlabki texnik ekspertiza natijalariga ko'ra, 40 ta loyihaga ijobiy xulosa berilgan hamda umumiy hajmi 10 milliard 450 million so'mlik 9 ta loyiha moliyalashtirilgan.

Majlisda Senatning "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Strategiyada belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga ko'ra, mamlakatimizda 2030-yilda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega ayollar sonini 1 400, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega xotin-qizlarni 3 700 nafarga yetkazish vazifasi belgilangan.

Buning uchun xotin-qizlar tadbirkorligini, ilmiy va ixtirochilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda gender statistikasini yuritish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Ta'lim muassasalaridagi iqtidorli qizlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda rivojlantirish maqsadida ular tomonidan yaratilgan intellektual loyihalarini chop ettirish, patentlashtirishda ko'maklashish lozimligi aytib o'tildi.

**Iqbol PARDAYEVA**

# OCHIQLIK-OSHKORALIK BO'LGAN JOYDA KORRUPSIYAGA QO'L URISH IMKONSIZ

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlari belgilab olingan Harakatlar strategiyasining ikkinchi – Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga qaratilgan yo'nalishida bevosita korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

O'tgan qisqa vaqt davomida ushbu dasturiy hujjat asosida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan bir qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, Prezident Xalq qabulxonasi, "ishonch telefoni" hamda "virtual qabulxonasi", shuningdek, har bir vazirlik va davlat idoralarining "ishonch telefonlari" hamda "virtual qabulxonalari" ishga tushirildi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlarning erkinligini ta'minlash, davlat idoralarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari uchun ochiq bo'lishlariga, rahbarlarning kundalik faoliyatida jurnalistlar bilan yaqin muloqot va hamkorlik o'rnatishlariga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar ko'rildi. Natijada mansabdorlarning har bir xatti-harakati jamoatchilik ko'z oldida bor holicha namoyon bo'lib, ular tomonidan qabul qilinayotgan noqonuniy qarorlarning bekor qilinishiga erishilmoqda. Zero, ochiqlik-oshkoralik bo'lgan joyda korrupsiyaga qo'l urish murakkablashadi.

Muhim qadamlardan yana biri bu – aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi tubdan isloh qilinib, Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Respublikada 203 DXM, tuman markazidan 100-300 kilometr uzoqda joylashgan hududlarda ham aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, davlat xizmatlari markazining 100 dan oshiq filiallari tashkil qilindi. 2017-yilda 38 turdagi davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunda 157 turdagi davlat xizmatlarini yashash joyidan qat'iy nazar, eksterritorial tamoyili asosida olish imkoniyati yaratildi. Fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar soni 167 tadan 79 taga qisqartirildi. Natijada ushbu xizmatlar ko'rsatish jarayonida inson omilining ishtiroki to'laqonli bartaraf etilib, fuqarolar ortiqcha byurokratik to'siqlarsiz o'zlariga zarur bo'lgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2018-yilda imzolangan "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, har bir vazirlik va davlat idorasi huzurida Jamoatchilik kengashlari tashkil etildi. Bugungi kunda bu kabi kengashlar davlat tashkilotlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatishda muhim bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional asoslarini takomillashtirishda 2020-yil mamlakatimiz tarixida alohida o'rin egallaydi. Boisi, 2020-yil 29-iyun kuni soha rivojiga turtki bo'ladigan ikki muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlar bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshiruvchi yangi tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Agentlik davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlaydigan, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan farmon bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo kengashi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi etib qayta tashkil etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustda "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan nomarkazlashtirish siyosati izchil va tizimli davom ettirilib, 42 ta litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomili bekor qilindi. 38 ta litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomili 17 taga birlashtirildi. 25 turdagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomilining muddati ularni ichki rasmiylashtirish vaqtini kamaytirish hisobiga qisqartirildi. 9 turdagi litsenziya bo'yicha litsenziyalovchi organning funksiyalari Vazirlar Mahkamasidan tegishli davlat organlariga, 5 turdagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomili esa respublika davlat boshqaruvi organlaridan ularning hududiy boshqarmalariga o'tkazildi.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shu yilning o'zida Oliy Majlis Senatida ham Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, tuman va shahar Kengashlarida tegishli qo'mita va komissiyalar faoliyati "Korrupsiyaga qarshi kurashish doimiy komissiyasi" sifatida qaytadan yo'lga qo'yildi.

Ularning asosiy vazifasi etib korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid qonun hujjatlari, davlat dasturlarining ijrosi ustidan tizimli parlament nazoratini amalga oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari mansabdor shaxslarining axborotlarini eshitib borish, amaldagi qonun hujjatlarida korrupsiyaga imkon beruvchi va shart-sharoit yaratuvchi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarini o'rganish, natijalari bo'yicha amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kabilar belgilandi.

Shuningdek, Prezidentning 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashishda vazirlik va idoralarning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda soliq va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha «yo'l xarita»si tasdiqlandi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan birgalikda, vazirlik va idoralar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish samaradorligini oshirishga qaratilgan idoraviy hujjatlar, "korrupsiyasiz soha" dasturlari va boshqa reja-dasturlar qabul qilinib, ijrosi ta'minlanmoqda.

Bundan tashqari, birgina 2020-yilning o'zida Prezident raisligida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha 10 ga yaqin videoselektor yig'ilishi hamda uchrashuvlar o'tkazilib, mas'ul idora va vazirliklarga tegishli ko'rsatmalar berildi. Bularning barchasi mamlakatimizda ushbu illat bilan davlat darajasida kurashishga qat'iy bel bog'langanini anglatadi. Buni nafaqat O'zbekiston fuqarolari, balki xalqaro hamjamiyat ham jiddiy siyosiy iroda sifatida qabul qilmoqda.

Galdagi vazifa sifatida esa shuni aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasida muhim natijalarga erishish hamda belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishda biz, xalq vakillari lokomativ bo'lishimiz darkor. Chunki korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash madaniyatini kuchaytirishimiz lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat davlat organlari va huquqni muhofaza etish tuzilmalarining vazifasi, balki butun jamiyatning burchiga aylansagina, ma'lum bir natijalarga erishish mumkin.

Buning uchun esa biz, xalq vakillari joylarda aholi bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar mazmun- mohiyatini fuqarolarga to'g'ri yetkazishimiz, mahalliy Kengashlardagi deputatlik guruhlari hamda parlament nazorati orqali belgilab olingan vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirishni nazorat qilib borishimiz lozim. Shundagina, har bir fuqaroning qobiliyati hamda malakasidan kelib chiqqan holda, mehnat qilishi kafolatlanadigan, o'z mehnatining miqdori va sifatiga yarasha munosib ish haqi va hayot darajasiga erishishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan ijtimoiy davlat qurishga erishamiz.

**Mavluda ADHAMJONOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi.**
**O'zA**



MULOHAZA

***Yoshi ulug' insonlar bilan suhbatda bo'lganimizda "Hayotda kasb va turmush o'rtoq tanlashda adashmaslik kerak" deb ko'p ta'kidlashadi. Chunki turmush o'rtoq bir umr yonimizda bizni qo'llab-quvvatlovchi inson bo'lsa, kasbimiz hayot yo'limizda bizni yuksaklikka ko'taruvchi hamrohdir.***

# KASBNI TO'G'RI TANLAY OLAMIZMI?

Olimlarning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, o'zi sevgan kasbda ishlovchi insonlarda muvaffaqiyatga erishish darajasi yuqoriroq bo'ladi. Kasb tanlash inson uchun o'z kelajagini tanlashi bilan barobardir. Inson kasb tanlaganda unga faqat daromad manbayi sifatida qaramasdan, umrining bir qismini o'sha faoliyat bilan bog'lashiga ham e'tibor qaratishi kerak. Bugungi kunda ota-onalar farzandlarining qiziqishlariga qarab ish ko'rmasligi, ularni daromadi ko'proq sohaga yo'naltirishi, qaysidir ma'noda, farzandining kelajagini barbod qilib qo'yishiga sabab bo'lmoqda. Natijada farzand hayotda o'z yo'lini topishga qiynaladi.

— Men yoshligimdan jurnalistika sohasiga qiziqardim, shu sohada o'qib yetuk mutaxassis bo'lishni orzu qilardim, — deydi O'zJOKU teleradio yo'nalishi talabasi Aziza NASRIDDINOVA. — Ammo Samarqand viloyatining chekka qishlog'ida o'sganligim sababli oilaviy sharoitim havas qilarli darajada emas edi. Shuning uchun poytaxtga kelib o'qish muammo tug'dirardi. Ota-onam, o'qishga kirsang, faqat pedagogika yo'nalishiga kirasan, bo'lmasa turmushga chiqasan, deb shart qo'yishdi. Noiloj Samarqand davlat universitetining matematika yo'nalishiga o'qishga kirdim. Lekin baribir ich-ichimdan, men jurnalist bo'lishim kerak, degan o'y sira tinchlik bermasdi. Universitetni tamomlaganimdan keyin shu soha bo'yicha ishlay boshladim, lekin bu kasbga qiziqmaganim uchun juda ko'p muammolarga duch kelardim. Oxir-oqibatda o'z qiziqishlarim ustun keldi va o'tgan yili O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga ikkinchi mutaxassislik bo'yicha o'qishga kirdim. Hozir o'zim sevgan ish bilan shug'ullanyapman. Ota-onalarga esa kasb tanlashni farzandlarining o'zlariga qo'yib berishlarini maslahat bergan bo'lardim. Hayotda o'zimiz sevgan ish bilan shug'ullanib, atrofdagilarga yaxshilik ulashishdan ortiq baxt bormi?! Hozir farzandlarimga ham o'zlari istagan kasbni tanlashi uchun sharoit yaratib berganman. Inson o'z hayotini o'zi quradi. Hayotda qiyinchiliklarga duch kelganda o'z kuchi va bilimi bilan vaziyatdan chiqib keta olishi lozim. Intilish va qobiliyatiga mos kasb tanlagan kishigina bunday imkoniyatga ega bo'ladi.

Har kim o'z qiziqishlari, intilishlari, iqtidori, uquviga qarab kasb tanlaydi. Ammo bizga bog'liq bo'lmagan shunday vaziyatlar bo'ladiki, kasb borasidagi xohishimizni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Kimgadir o'z tanlagan sohasi bo'yicha oliy ta'lim olish nasib qilmasa, boshqa birov uchun o'qigan yo'nalishida ishlash muammo bo'ladi.

— Men Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tarjimonlik nazariyasi fakultetida o'qiganman, — deydi TDAU akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Rajab ABDIYEV. — Bu soha bo'yicha bakalavr bosqichini tamomlagan bo'lsamda, bir necha yillardan buyon Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi akademik litseyda ona tili va adabiyot fanidan o'quvchilarga ta'lim berib kelmoqdaman. O'qishni bitirganimdan keyin bir necha joylardan ish yuzasidan takliflar tushgan, ammo shaharda "propiskam" yo'qligi uchun qabul qilishmagan. Ro'yxatdan o'tish uchun ariza topshirganimda esa ishga kirganlik haqida ma'lumotnoma so'rashgan... Talabalik davrimdayoq o'quv markazlarida repetitorlik qilardim, u yerda ozroq tajriba ham orttirganman. Shu sababli 6 oylik qayta tayyorlov kursida o'qib, o'qituvchi bo'lishga qaror qilganman va bundan hech ham afsuslanmayman. Hozirgi kunga kelib, ozmi-ko'p shogirdlarimiz bor, o'quvchilarimiz yurtimizning eng nufuzli oliy ta'lim dargohlarida o'qiyapti, ularning orasida bir qancha yutuqlarga erishganlari ham talaygina. Yaqinda abituriyentlar uchun tuzilgan testlar to'plamimiz tasdiqdan o'tdi. Balki tarjimonlik sohasida ishlaganimda ham yaxshi natijalarga erishishim mumkin edi, lekin nolimayman, hozirgi ishimni ham yaxshi ko'raman. O'z kasbimni yanada mukammal o'rganish maqsadida bu yil magistraturaga o'qishga kirmoqchiman. Nima bo'lganda ham inson o'zi sevgan ish bilan shug'ullanishi lozim, ana o'shanda u o'z vazifasini sidqidildan ado etadi va insonlarga naf keltira oladi.

Ba'zi insonlar o'zlaridagi imkoniyatni, iqtidorni to'liq anglay olmaydi. Aniq bir kasb tanlash vaqti kelsa-da, ular hamon ikkilanadi. Shunday vaziyatda mutaxassis maslahatiga quloq solish eng to'g'ri yechim bo'ladi. O'ziga xos metodlar yordamida kishida aynan nimaga layoqat borligini aniqlash qiyin ish emas. Xo'sh, kasb tanlashda qay jihatlarga ahamiyat qaratmoq joiz? Bu borada amaliyotchi psixolog Mehriniso SAYDALIYEVA fikrlariga quloq tutamiz:

— Insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kasbiy kamolot insonning butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib, yoshga hamda shaxsning taraqqiy etganligiga mos holda rivojlanadi. Kasb tanlash muhim muammolardan biri. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u psixologik jihatdan shunchalik murakkablashib boradi. Shaxsning subyektiv moyilligi, u yoki bu faoliyatga qobiliyatliligi bir butunlikni tashkil etadi. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Kasb tanlash arafasida turgan inson shaxsining mazkur sohaga qanchalik mos ekanligi faqatgina ushbu faoliyat jarayonidagina aniqlanadi. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishga ko'r-ko'rona yondashmaslik kerak. Masalan, yuridik soha rivojlanyaptimi, men ham bolamni shu sohada o'qitishim kerak, degan fikrdan yiroq bo'lishimiz lozim. Kasb tanlashda inson o'zining xarakterini hisobga olsa, kasbiga nisbatan layoqat paydo bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, kasb tanlashda, avvalo, qiziqishlarni inobatga olish kerak. Ota-onalar ham farzandlarini bu borada erkinroq qo'yishi, ularning fikrini inobatga olishi zarur.

**Lobar QODIROVA,**
**Mashhura NASRIDDINOVA**



# O'QUVCHILAR DAVRASIDA

**biologik xilma-xillik mavzusida suhbat o'tkazildi**

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida 22-may — Xalqaro biologik xilma-xillikni saqlash kuniga bag'ishlangan davra suhbati o'tkazildi. Tadbirda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Botanika va ekologiya" kafedrasi professor-o'qituvchilari, maktab o'qituvchi va o'quvchilari ishtirok etdi.

Uchrashuvda so'zga chiqqan TDPU professori Sh.Avazov, P.Mirxamidova, dotsent R.Jononova, Sh.Yakubjanovalar o'quvchilarga biologik xilma-xillikni saqlash dunyo bo'yicha global darajadagi muammo ekanligini qayd etdi. Biologik xilma-xillik turlicha bo'lib, u o'simlik va hayvon turlari xilma-xilligi, ekotizimlar rang-barangligi, genetik hamda molekulyar biologik xilma-xillik kabi to'rtta yo'nalishni o'z ichiga olib, hozirgi kunda ko'plab turlar yo'qolib borayotganini ta'kidlab o'tdi.

Davra suhbati davomida yurtimizda mazkur sohada olib borilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldi.

Xuddi shunday tadbir Chilonzor tumanidagi 173-maktabda ham o'tkazildi. Uchrashuvda TDPUning botanika va ekologiya kafedrasi mudiri O'ktam Xo'janazarov, o'qituvchilar Lobar Qoraxonova, Normat Durdiyev, Mamlakat Xonnazarovalar ishtirok etib, o'quvchilarning ekologik xilma-xillik borasidagi bilimlarini boyitishga hissa qo'shdi.

**Muxbirimiz**

# YAKUNIY VA BOSQICHLI IMTIHONLAR QANDAY O'TMOQDA?

***Mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yozgi ta'tilning maroqli damlari boshlagan bo'lsa, yuqori va bitiruvchi sinf o'quvchilari bosqichli va yakuniy nazorat imtihonlarini topshirmoqda.***



Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 23-maktabda ham imtihonlar Xalq ta'limi vazirligi tavsiyasi asosida, karantin qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazilmoqda.

Kuni kecha maktabning 7-sinf o'quvchilari uchun ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan bosqichli imtihon ham belgilangan tartibda tashkil etildi. Eng avvalo, maktabda dezinfeksiya ishlari olib borildi, o'quvchilar sanitar-gigiyena qoidalariga rioya etgan holda, himoya niqobida imtihonlarga kiritilib, binoga kirishdan avval ularning tana harorati o'lchandi va sinfxonalarda oraliq masofani saqlashlari ta'minlandi.

Maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gavhar Ismailova olgan yozma ishda o'quvchilar "Kamalak qanday paydo bo'ladi?" mavzusida diktant yozishdi. Imtihon komissiyasi nazorat ishlarini shu kunning o'zida tekshirib, javoblar e'lon qilindi.

**B.HASANOV,**
**Zangiota tumanidagi 23-maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi**

КРУТИ ПЕДАЛИ!





# Солнце на спицах

***После коронации Александра I в 1801 году ему представили уральского самородка – крепостного Ефима Артамонова. Изобретатель добрался до Петербурга на диковинной двухколесной конструкции, двигаясь со скоростью десять километров в час. Это был первый велосипед.***

***А рождением велоспорта считают 31 мая 1868 года. В последний день весны в парижском пригороде Сен-Клу состоялась первая велогонка на 2000 метров. Смешная дистанция для нынешних спортсменов, наматывающих ленты километров.***

*3 июня отмечается Всемирный день велосипеда, учрежденный сравнительно недавно (2018) на Генеральной Ассамблее ООН. Это замечательное средство передвижения названо «символом устойчивого транспорта». В резолюции отмечается «уникальность, давняя история и многофункциональность велосипеда, который используется уже два столетия и является простым, недорогим, надежным, экологически чистым и приемлемым видом транспорта».*

**В КАЖДОЙ ФРАЗЕ – ДОЛЯ ПРАВДЫ**

Редкий ребенок не помнит коронную фразу мультяшного почтальона Печкина: «Я почему вредным был? Потому что у меня велосипеда не было».

Вспоминается анекдотическая история соседки. Внук довел бабушку до белого каления, читая пословицы. Причем все объяснения разбивались о стену неприятия истинного смысла народной мудрости. «ВЕлика голова, да ума в ней мало». Второклассник Богдан удивился: «Бабуль, а где у вЕлика голова? Руль? А почему велик глупым обзывают?» Женщина вытащила сборник пословиц и поговорок – внук все краткие формы прилагательного «великий» прочитал по-велосипедному. Доводы насчет велИк и великА тонули в «современном» понимании вопроса.

«Меланхолия несовместима с велосипедом. Велоспорт является бегством от грусти» – так и есть. Обратите внимание на спортсменов, оседлавших коня на колесах: их отличает прекрасное настроение, склонность к юмору. Создатель Шерлока Холмса Артур Конан Дойл советует: «Когда дух упал, когда день не задался, когда работа становится монотонной и надежды нет – садитесь на велосипед и езжайте по дороге, не думая ни о чем, кроме самого катания».

Кстати, 33 километра в неделю не только сделают вас более ровным и доброжелательным в общении, – они снизят риск коронарной недостаточности на 50 процентов. А то, что вы будете фактически застрахованы от тромбофлебита, позитива точно прибавит.

**НЕСОМНЕННАЯ ПОЛЬЗА**

Задумав приобрести велосипед, потенциальный покупатель изучает историю вопроса всеми известными способами. В интернете наткнется на странички, называющие 10, 20, 40 причин выбрать этот экологически чистый вид транспорта. Уже характеристика «экологически чистый» рассеивает сомнения. Строка из песни «Я буду долго гнать велосипед» раскрывает массу плюсов: улучшаются кровообращение, выносливость, обмен веществ, зрение, состояние кожи, сон становится крепким и сладким, нормализуется давление, проходит головная боль, укрепляется нервная система, прокачиваются мышцы... Концентрируется внимание.



Кстати, велосипед – прекрасное средство для снижения веса с явными преимуществами перед бегом и тренажерными залами, потому что худеешь с удовольствием, без изнурительных тренировок. Просто жмешь на педали и радуешься жизни. И нечто схожее с «эйфорией бегуна» можете ощутить. Вдруг будто крылья за спиной развернутся.

Об экономии и говорить нечего. Тройная: на бензине, на оплате фитнес-клуба и на услугах врача. Солнце, воздух и вода в виде дождя закаляют: любители таких прогулок болеют редко.

Этот вид спорта имеет омолаживающий эффект. Не верите – посмотрите на фото ветеранов.

**ЛЮБОВЬ НА ВСЮ ЖИЗНЬ**

Тренер-представитель ветеранского движения велоспорта Игорь Толстыкин признается, что даже после серьезной травмы не смог усидеть дома и решил поддержать марафонцев:

– Разве можно отдыхать перед телевизором, когда наши собрались? Тон задавал председатель движения 82-летний Виктор Клименков. Отставать не годится! Участвуем во всех соревнованиях. Велосипед – это на всю жизнь.

В планах у тренера собрать детей из близлежащих домов в спортивный клуб. Местоположение идеальное. Можно заниматься и малышам. Вдоль реки проходит велодорожка.

О себе говорит, что любовь к педалям у него в крови. Знает, что трехколесный велосипед подарил отец, который ушел из жизни, когда мальчишке было немногим больше двух лет. Вспоминает, как протестовала мать, когда начал заниматься спортом всерьез. А дорога в институт превращалась в увлекательное путешествие. За годы обучения личному транспорту не изменил ни разу. Девчонки в непогоду пересаживались на маршрутку, а он сам сшил себе комбинезон из болоньевых плащей, выезжая в нем в дождь и снег.



**ОСТОРОЖНО: СПОРТСМЕН!**

– Тогда движение было не столь интенсивное, – продолжает спортсмен-ветеран. – Чтобы автомобилисты подрезали, не припомню. С уважением относились. Сейчас бы не советовал студентам таким образом добираться до вузов. Где найдешь велосипедную дорожку до порога родного института? На оживленных магистралях у нас одно преимущество: можно объехать пробку. А в нескончаемом потоке машин велика вероятность ДТП. Сам видел, как, отреагировав на возможного клиента, водитель едва не сбил парня на велике. Не утверждаю, что каждый выезд заканчивается трагически, однако это слишком опасно. Советую отправляться в путь рано утром, до интенсивного движения.

Точку зрения ветерана поддерживает и тренер-селекционер Федерации велоспорта Вячеслав Рахимов:

– Спортсмены-одиночки подвергаются огромному риску. Когда едет группа, ей выделяется сопровождение, гарантирующее безопасность. Особенно удивляют любители, осмелившиеся выезжать на автомагистрали без индивидуальных средств защиты. Сборная Узбекистана практически безвылазно тренируется в Чимгане. И безопасно, и дополнительные трудности горных трасс осваивают. Велодорожки в городах и районах республики рассчитаны на любителей.

**ПОДДЕРЖИМ МУЙНАК!**

Добрая традиция определять цель марафонов стимулирует. Этап марафона «Муйнокка мадад» (проводит Экологическая партия Узбекистана совместно с Министерством туризма и спорта, Олимпийским комитетом и Федерацией велоспорта) прошел в Ташкенте 25 мая. Затем участники направились в Джизак, Самарканд. Десять велосипедистов стартовали в Андижане 21 мая, проехали по маршруту Наманган – Фергана – Ташкентская область. В столице к ним прибавилось еще 27 профессионалов. В каждом пункте организуются велогонки. Продолжают же следование к месту назначения 36 человек. Финиш – в Муйнаке.

В разговоре о марафоне мы коснулись вопросов спортивной селекции и проблем велоспорта. Вячеслав Рахимов обрадовал, что сильных велосипедистов готовят не только в столице, но и в регионах, которые в последние годы заметно активизировались. К проблемам отнесены обеспечение, нехватку инвентаря: данный спорт – дорогостоящий.

**ДРУГОГО НЕ НУЖНО**

Когда Валерии Гамм, учащейся Чирчикского колледжа олимпийского резерва, в детстве подарили трехколесного красавца с голосистым звонком, она сразу записала его в разряд друзей. Кстати, первое время приятелям кататься на нем не давала: боялась, что сломают. Потом стала заглядываться на более взрослые средства передвижения. На один из дней рождения получила заветный подарок и лучшего занятия, чем быстрая езда, не представляла. Однажды в школе увидела объявление о наборе в колледж. Сомнений не было: ее звал большой спорт. Пока у восьмиклассницы две значительные победы: «бронза» на чемпионатах Узбекистана. А привлекает больше всего единение с природой и сознание того, что ей не приносишь вреда.



– Ветер в лицо, пение птиц, чистый воздух и горные пейзажи, – с восхищением отзывается Валерия о своем главном деле, – что может быть прекраснее?! Велосипед дарит здоровье. Все больше девушек выбирают его. Кто-то как любитель в пунктах проката, кто-то профессионально. Мы с велосипедом – одно целое! Полностью согласна со словами Гранта Петерсона: «Думайте о велосипедах как об искусстве, способном спасти мир».

**Людмила АЛЕКСИЧ**

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана www.yoshlarovozi.uz yoshlarovoziuz@mail.ru @yoshlarovoziuz @yoshlarovozi № 18 (16424) 2021-YIL 2-IYUN 7

ОБЩЕСТВО РАВНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

# ВСЕ ДЕТИ ИМЕЮТ ПРАВО НА СЧАСТЬЕ





***Когда на свет появляется особенный ребенок, родителями овладевает паника: сын или дочь не такие, как все, привлекают внимание на улице, многого не умеют... Зачастую после взаимных обвинений подобные семьи распадаются и мать одна несет свой крест. Хотя... не одна. Существует структура, которая учит справляться с проблемами, принимая и любя ребенка таким, какой он есть, формируя у него необходимые жизненные навыки.***

*Республиканский центр социальной адаптации детей (РЦСАД) – неправительственная некоммерческая организация, в которой работают люди, способные к сопереживанию, искренне желающие помочь каждому.*

*О том, как центр меняет свою непростую аудиторию, мы беседуем с **Нигорой Ризаевой** – менеджером РЦСАД и педагогом по арт-терапии.*

**– Представляете себя в другой роли?**

– Нет. Всегда хотела помогать детям и не понимаю, как можно ребенка бросить или не любить из-за инвалидности. Работать с особенными мальчиками и девочками нелегко, но какая радость, когда они бегут к тебе в кабинет и уходят со счастливыми улыбками! Когда улыбками освещаются лица их родителей. Это дорогого стоит. Хочется максимально одарить их любовью. Они все необыкновенные – чудесные, чистые, искренние. Многие не могут нормально держать кисть, некоторые просто рассеянны, кому-то вообще ничего не хочется... Входя с ребятами в контакт и фиксируя их внимание, создаем «шедевры». Пусть это простой треугольник или незамысловатая картина, но для них прогресс. Идет полноценная командная работа всех специалистов, что приносит свои плоды.



**– Расскажите нашим читателям об истории создания центра. Какие цели ставились и как они достигаются?**

– Создан в 2004 году при Комитете женщин Узбекистана на основании постановления Кабинета Министров «Об образовании Республиканского центра социальной адаптации детей», в котором были утверждены его Устав и структура.

Основными целями РЦСАД определили повышение эффективности работы по воспитанию духовно развитого и физически здорового подрастающего поколения, обеспечение социальной адаптации детей с ограниченными физическими возможностями, из неблагополучных семей или оставшихся без попечения родителей. Отношение к таким ребятам – показатель «здоровья» общества.

Миссия центра – комплексная медико-социальная, психолого-педагогическая помощь и консультативно-юридическое содействие детям из социально уязвимых групп населения, синтез науки и практики.

Центр взаимодействует с органами государственного управления, учреждениями системы непрерывного образования, здравоохранения, внутренних дел, институтами гражданского общества, ННО, международными организациями и фондами.

В 2012–2014 годах поэтапно созданы региональные филиалы РЦСАД в Карши, Самарканде, Фергане. В настоящее время каждый из них ежегодно оказывает комплексные услуги более чем 1500 детям с психофизическими нарушениями здоровья.

**– Чтобы осуществлять социальную адаптацию детей, надо прежде всего работать с их родителями. Как у вас налажен этот процесс?**

– Безусловно, состояние ребенка зависит от родителей. В Информационно-консалтинговой службе (ИКС) и в научных отделах РЦСАД проводится работа как с детьми, так и со взрослыми.

Выстроена система психологических, социально-правовых консультаций по вопросам воспитания несовершеннолетних и защите их прав. Организованы курсы для приемных родителей по запросам домов «Мехрибонлик».

**– На ваших глазах дети и взрослые становятся другими...**

– Главное – усвоить: ребенка надо научить жить, каким бы он ни был. Помочь найти себя, почувствовать собственную значимость, создать такие условия, которые раскроют его внутренние резервы.

Как-то за помощью обратилась семья с шестилетним мальчиком. Отец увидел у сына расстройство аутистического спектра (РАС), мать – врач по образованию – категорически не соглашалась с диагнозом. Супруги ссорились на этой почве, дело шло к разводу. Но придя к нам в центр, они все-таки нашли общий язык. Ребенок стал ходить в обычную школу с инклюзивным образованием под контролем тьютора (сопровождающий). Кстати, это наш психолог Алишер Милиджаев. Мать приняла аутизм сына, и семья ожила. Купили дом, так как для детей с РАС нужно много пространства. Мальчик ведет обычный образ жизни.

Случайно услышав о центре, к нам попали мама с дочкой. Закомплексованная девочка не вставала с инвалидной коляски, мама была подавлена горем. Не зная, что с ее ребенком, после долгих обследований в разных клиниках, где им ставили неверные диагнозы, почти опустила руки. Наши специалисты определили прогрессирующую мышечную дистрофию Дюшена с сохранным интеллектом. Дали рекомендации. Результат не заставил себя ждать: девочка начала вставать с инвалидной коляски и самостоятельно передвигаться, проявился талант к рисованию.

**– Какие возможности РЦСАД открывает перед детьми?**

– Осознание того, что они тоже могут многое и являются частью общества. Среди них немало творчески одаренных, с исследовательской жилкой. Грамотная поддержка специалистов придает ребятам и их родителям сил и уверенности в завтрашнем дне.

У нас мамы и папы узнают, что их «особенные» дети действительно особенные в хорошем смысле слова, так как центр раскрывает потенциал каждого. Наши подопечные танцуют, поют, плавают, рисуют, играют на музыкальных инструментах, без калькулятора производят действия с многозначными цифрами...

Для ребят из домов «Мехрибонлик» проводятся занятия по «вхождению» во взрослую жизнь. Предоставляется тьютор на пять лет.

**– Центру скоро исполнится 20 лет. Какие масштабные проекты удалось воплотить за эти годы? Что находится в стадии разработки?**

– Реализуются проекты как республиканского, так и международного уровня. В качестве примера можно привести следующие: «Анализ социальной политики Узбекистана в отношении детей-инвалидов» (партнеры – ЮНИСЕФ, Минздрав, Минтруда, 2005–2006); создание Службы раннего вмешательства в Узбекистане (совместно с Минздравом, 2006–2009); развитие модели эффективной системы социальной защиты детей в республике и распространение пилотных служб поддержки семьи и детей в других регионах страны (совместно с ЮНИСЕФ, хокимиятами Бухары, Ташкента, Самарканда, Андижана, Гулистана, 2007–2012)...

Положительно зарекомендовали себя проекты по социальной защите сирот и детей, оставшихся без опеки родителей, по профилактической работе с группой социального и правового риска, по продвижению процесса деинституционализации, профориентационной работе, социально-бытовой подготовке воспитанников интернатных учреждений, по инклюзивному образованию, психолого-педагогическому сопровождению одаренных детей, реабилитации и интеграции в общество воспитанников специализированных школ и профессиональных колледжей. И это лишь небольшая часть проделанной работы.

Сегодня РЦСАД совместно с ЮНИСЕФ реализует программы по оказанию социально-психологической помощи детям и семьям, вернувшимся из зон военных конфликтов, а также проект «Светофор бедности» – активизация семьи в шести измерениях, помогающих жить в достатке.

**– Какие детские проблемы встречаются наиболее часто?**

– Проблемы в адаптации приемного ребенка в семью и наоборот. Родители требуют, чтобы малыш изменился, но не признают, что и самим надо меняться, особенно это касается отцов.

Помощь детям и семьям, пережившим насилие. Это самая эмоционально сложная категория. К сожалению, количество нуждающихся в психологической реабилитации не снижается. Для воспитанников домов «Мехрибонлик» разработаны разные программы по коррекции поведения, подготовке к самостоятельной жизни, сглаживанию последствий психотравмы.

Семейные проблемы с алиментами. С установлением группы инвалидности детям. Отказ в обеспечении жильем или предоставление его в ужасном состоянии для выпускников домов «Мехрибонлик».

Достаточно распространено расстройство аутистического спектра. Постоянная работа по изучению РАС, тренинги, семинары с экспертами из других стран, обмен опытом вооружают специалистов новыми знаниями и методиками. В результате дети получают более квалифицированную помощь.

Актуальны наследственно-генетические заболевания, связанные не только с близкородственными браками, но и игнорированием диагностики совместимости.





**– Как выявляете свою аудиторию, по каким каналам? Ведь многие из тех, кто нуждается в реальной помощи, не знают о существовании центра.**

– «Сарафанное радио» действует безотказно, каждый, кто знает, передает информацию. Также у нас есть сайт rcsad.uz, странички в Facebook и Instagram, о наших мероприятиях сообщается в прессе. В РЦСАД приходят и по направлению специалистов: медиков, педагогов, воспитателей.

О центре знают многие, обращаются за помощью не только узбекистанцы, но и жители Казахстана, России. Постепенно незнающие переходят в разряд знающих, ведь мы реально помогаем.

**– Удалось ли создать Службу ранней помощи в Узбекистане?**

– Модель такой службы успешно функционирует в РЦСАД и его региональных филиалах. Начиная с 2011 года по данному направлению активно сотрудничаем с Министерством здравоохранения.

В результате в 2011-м в двух многопрофильных центральных поликлиниках столицы – в Чиланзарском и Яккасарайском районах, в 2014-м еще в трех – Мирабадском, Мирзо-Улугбекском и Яшнабадском, а также в Андижанской, Наманганской и Ферганской областях запущены пилотные службы ранней помощи. Но так как законодательная база отсутствовала, службы осуществляли деятельность на альтернативной основе.

В ноябре 2019 года Президент подписал постановление «О повышении качества и дальнейшем расширении охвата медицинской помощью, оказываемой женщинам репродуктивного возраста, беременным и детям». Программа мер, утвержденная данным документом, предусматривает создание в детских отделениях районных (городских) центральных многопрофильных поликлиник «комнат первичной помощи». Они способствуют раннему выявлению малышей с угрозой отставания в физическом и психосоциальном развитии, оказанию им медико-педагогической помощи по индивидуальной программе. Комнаты оснащены необходимым педагогическим и реабилитационным инвентарем.

Специалисты РЦСАД разработали и передали на рассмотрение в Минздрав проект положения «О кабинетах ранней медико-психолого-педагогической помощи при центральных многопрофильных поликлиниках».

**– Как проходит социальная адаптация детей разных групп и какие инновационные методы и технологии внедряются?**

– После изучения истории ребенка, его возможностей и потребностей составляется индивидуальная программа адаптации.

Применяем сухой массаж в аквамембранной ванне. Волнообразно подаваемая струя теплой воды вызывает вибрацию мембраны, которая оказывает лечебное воздействие на определенные участки тела. В результате улучшаются кровообращение, поступление кислорода к мышцам, ток лимфы и усиливается обмен веществ. Стимулируются функции дыхательной системы, укрепляется сердечная мышца, уменьшается нагрузка на позвоночник, что сказывается на осанке. Назначается как детям с неврологической патологией, заболеваниями опорно-двигательного аппарата, гипер- и гипотонусом мышц, так и с заболеваниями желудочно-кишечного тракта, а также с избыточной массой тела.

LokomatPro – полноценный роботизированный комплекс, моделирующий и воспроизводящий естественную человеческую походку. Активирует сенсомоторные сети головного мозга, отвечающие за ходьбу. Единственный в республике.

В основе транскраниальной микрополяризации (ТКМП) изменения функционального состояния различных звеньев центральной нервной системы под действием малого постоянного тока. Признан одним из самых безопасных и рекомендован для применения в детской психиатрии и неврологии.

Тейпирование – терапевтический метод восстановительного лечения, основанный на естественных методиках оздоровления организма. Снимает тонус мышц у детей со слюнотечением, ДЦП, задержкой речи.

Для домов «Мехрибонлик» разработаны индивидуальные планы адаптации, развития воспитанников. Проводим обучающие тренинги для выпускников детдомов.



**– Каким образом вселяете уверенность в детей с особыми нуждами?**

– Системной работой специалистов по индивидуальным программам и, конечно, поддержкой, радостью от общения, улыбками, любовью. Ведь любовь спасает мир.

**– Расскажите о развитии системы инклюзивного образования.**

– Концепции инклюзивного образования и инклюзивного общества все больше набирают популярность. Однако не весь потенциальный контингент сегодня охвачен инклюзивным образованием – одним из главных условий успешной социализации. Это ведет к усилению «неравенства» для людей с особыми потребностями.

Вопросы инклюзивного образования в Узбекистане поднимались давно, но, к сожалению, ему не придавали должного значения. Законодательная база отсутствовала вплоть до 2020 года.

Статьи 20 и 55 новой редакции Закона Республики Узбекистан «Об образовании», принятой 23 сентября 2020 года, предусматривают инклюзивное образование, обучение и воспитание детей (физических лиц) с физическими, умственными, сенсорными или психическими нарушениями, получение ими бесплатного общего среднего, среднего специального, профессионального и внешкольного образования в инклюзивной форме в государственных специализированных учебных заведениях, общих средних, средних специальных, профессиональных учебных заведениях.

РЦСАД – организация, которая уже несколько лет эффективно работает в данном направлении. В рамках этой деятельности центр достиг следующих результатов:

– в 2011 году в республике впервые издана монография «Инклюзивное образование (международный и узбекский опыт)»;

– по инициативе и при активном участии сотрудников РЦСАД в учебные программы бакалавриата и магистратуры факультета «Специальное образование» ТГПУ имени Низами введен курс «Инклюзивное образование»;

– одно из наиболее значимых достижений – реализация проекта «Инклюзивное образование для детей с особыми потребностями в Узбекистане» в 2014–2017 годы при технической поддержке Европейского Союза, в сотрудничестве с министерствами народного образования и здравоохранения. Задействовано пять регионов: Ташкент, Самаркандская, Наманганская, Хорезмская и Сурхандарьинская области.

В рамках проекта 907 детей с особыми потребностями охвачены инклюзивным образованием в 27 пилотных школах и 27 детских садах; 1350 членов медико-психолого-педагогических комиссий и педагогических работников прошли обучение по предоставлению инклюзивных услуг в сфере образования. А самое главное, разработана долгосрочная Национальная стратегия инклюзивного образования в Узбекистане.

Специалисты РЦСАД приняли участие в процессе разработки и утверждения Концепции инклюзивного образования и по сей день активно исполняют постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания детей с особыми образовательными потребностями».

Одно из недавних событий – проведение трехдневных семинаров-тренингов «Инклюзивное образование – залог инклюзивного общества» для директоров, заместителей директоров по учебной части, педагогов начальных классов общеобразовательных школ города Ташкента.

**– Что, по мнению коллектива РЦСАД, входит в понятие «защита ребенка»?**

– В первую очередь семья должна принять своего «особенного» ребенка и сформировать понимание жизни в социуме. Затем правильное восприятие таких детей в обществе. Создание условий для того, чтобы они не чувствовали себя ущемленными. Это и соответствующее отношение, и инфраструктура для спокойного передвижения. Недопустимо, чтобы дети (с инвалидностью, сироты, из малоимущих и неблагополучных семей, оступившиеся) ощущали себя одинокими, лишенными внимания, ненужными. И конечно, защита – это права, определенные законодательством.

**Беседовала**
**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**

# Сказка в тенистой аллее





*Впечатления детства самые яркие. Вспоминаю, как в Международный день защиты детей получила подарок. Красочная обложка сказок Пушкина не просто манила – требовала, чтобы ее раскрыли и погрузились в чтение.*

*Я увидела его... бедного старичка из «Сказки о рыбаке и рыбке». Он стоял на коленях, а рядом бушевало море. На какое-то время меня перестала интересовать прогулка по парку. Предложила маме сесть и почитать тут же, на скамейке.*

*Лучшее семейное чтение в моей жизни! Очаровывала напевность стиха, особенные слова: «невод», «взмолилась», «простор», «старче», «воротился». Подключился папа, наш главный книголюб. Уж он-то мог ответить на любой вопрос.*

*Сейчас, будучи студенткой, понимаю, какое это счастье – читать интересную сказку в тенистой аллее. Рядом самые любимые люди, которые все знают и в любую секунду готовы растолковать.*

*Понравились море, показывающее характер, «этикет» старика, благодарная рыбка. Обилие непонятных слов не помешало уяснить главный смысл: жадность губит человека, а доброта и трудолюбие вознаграждаются.*

*С тех самых пор и вошла в мой лексикон фраза «Не оказаться бы у разбитого корыта».*

**Сабина ЧОРИКУЛОВА,**
**студентка ТашПМИ**

# афишка.UZ

## Мир логики и алгоритмов

***Что:*** *бесплатные уроки детского программирования Scratch*
***Где:*** *школа Proweb (г.Ташкент)*
***Когда:*** *6 и 13 июня*



Начались летние каникулы, а значит, самое время подумать о полезном и увлекательном досуге. Например, можно обучиться программированию. Scratch – специальная программа для детей, благодаря которой они погружаются в мир логики и алгоритмов, учатся мыслить творчески и работать в команде – без этих навыков сложно представить жизнь современного человека в XXI веке.

Занятия проводятся в очном и онлайн-форматах. На курсе ребята будут создавать собственные интерактивные истории, игры и анимацию, а затем делиться ими с друзьями, одноклассниками или мировым сообществом Scratch.

## Будьте здоровы!

***Что:*** *25-я международная выставка «Здравоохранение – TIHE 2021»*
***Где:*** *столичный Узэкспоцентр*
***Когда:*** *9–11 июня*



TIHE – главный медицинский форум новейших технологий и практического здравоохранения в Узбекистане. За многолетнюю историю выставка стала профессиональной платформой и местом встречи представителей государственных структур, производителей оборудования и изделий медицинского назначения, ученых и практикующих врачей. Среди участников мировые лидеры медицинской промышленности, разработчики новых технологий диагностики и лечения заболеваний.

Экспозиция включает несколько тематических разделов: «Физиотерапия, ортопедические технологии», «Мебель для больниц и лечебных заведений», «Лабораторное оборудование», «Электромедицина» и так далее.

## Женский взгляд

***Что:*** *программа показов «Фильмы режиссеров-женщин»*
***Где:*** *Гёте-институт в Ташкенте*
***Когда:*** *до 23 июня*



Женщины-кинематографисты за последнее время всерьез поменяли ландшафт киноиндустрии, привлекли внимание к своим проблемам, психологии, интересам и желаниям. Фильмы, вошедшие в программу, рассказывают о сильных духом героинях. Они противостоят общественному мнению, не теряют достоинства даже в условиях тотальной безысходности («Ханна Арендт», «Рожденная в Эвине», «Мой конец. Твое начало», «Плач танбура»), проходят первые испытания взрослой жизни («Йул булсин», «Чилля»).

## Ташкент: культура и архитектура





***Что:*** *выставка «Ташкент. Вакф»*
***Где:*** *столичный Центр современного искусства*
***Когда:*** *весь июнь*

Фонд развития культуры и искусства и галерея Bonum Factum организовали выставку современных художников. «Вакф. Ташкент» – продолжение проекта «Лангары Узбекистана» по изучению устных народных преданий и среды актуального обитания.

В экспозиции представлены работы Виктора Ана, Вячеслава Усеинова, Ильдара Садыкова, Полины Пулатовой, Бахтиёра Набиева и других мастеров. Также проходят лекции, посвященные архитектуре Ташкента, истории его культурной жизни.

Для справки: вакф – в мусульманском праве имущество, переданное государством или отдельным лицом на религиозные, благотворительные цели.

## Поможем птицам загнездиться

***Что:*** *конкурс детских рисунков*
***Где:*** *все регионы*
***Когда:*** *до 1 августа*



Общество охраны птиц Узбекистана приглашает ребят от 6 до 16 лет принять участие в конкурсе, посвященном нашим пернатым друзьям. Принимаются сюжетные рисунки, отражающие бережное отношение к птичьим гнездам или процесс изготовления искусственных гнездований. Приветствуются работы, посвященные проблемам (например, рубка деревьев с гнездами).



Фото рисунков с указанием ФИО и возраста автора необходимо отправить в Telegram-группу t.me/birdwatching_uz. Путем голосования определят трех победителей, которых наградят ценными призами. Репродукции лучших работ войдут в календарь на 2022 год.

## Айда на Scorpions!

***Что:*** *концерт «Симфо-рок»*
***Где:*** *Дворец искусств «Туркистон»*
***Когда:*** *17 июня*



Национальный симфонический оркестр Узбекистана исполнит хиты из репертуаров знаменитых рок-групп: Albinoni, Pink Floyd, Deep Purple, Linkin Park, Queen, Scorpions, Aerosmith.

Дирижер – Алибек Каддурахманов. Художественный руководитель оркестра – народный артист Узбекистана Исмаил Джалилов.

NUQTAYI NAZAR

# MUSIBATDAN LAZZAT OLMANG...

***2021-yil 24-may kuni ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining diqqatini tortgan va keng muhokamalarga sabab bo'lgan voqea ko'pchilikni seskantirdi.***

Tafsilotlarga ko'ra shu kuni soat 09:30 larda Angren shahridan o'tuvchi A-373 avtomobil yo'lining 184 km. da "Namangan-Toshkent" yo'nalishi bo'yicha harakatlanayotgan "MAN" rusumli tirkamali yuk avtomobili boshqaruvini yo'qotib, ag'darilib, o'zidan oldinda temir yo'l kesishmasiga yetmay to'xtagan. Natijada "Lasetti", "Kobalt", "Jentra", "Neksiya-3", "Matiz", "Neksiya-3" va "Lasetti" rusumli avtomobillar bilan to'qnashib, YTH sodir bo'lgan. To'qnashuv natijasida "Lasetti" rusumli avtomobil yongan. YTH natijasida 5 nafar fuqaro voqea joyida vafot etgan hamda 4 nafar fuqaro turli darajadagi tan jarohati olgan...

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etolmaymiz. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni bemisl darajada o'ziga "ROM ETADI".

Aksariyat yoshlar o'zining qimmatli vaqtini behuda sovurib, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanadi. Shu tariqa ular deyarli barcha axborotga ega bo'ladi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildiradi. Biroq munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni ma'naviyatli kishilarning fikri, deya olamizmi? Ayniqsa, bugungi kunda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riligini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati yetadimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z fikrini bildirmoqda.

Angren yo'lida sodir bo'lgan voqea tafsilotlaridan so'zlovchi "fotosurat mualliflari"ning maqsadi nima? O'zgalar musibatini tezkor ravishda ommaga yetkazish orqali ochko olishmi yoki bu bilan uning ijtimoiy tarmoqlardagi reytingi oshib qoladimi? Bu faqat Angren voqeasi bilan bog'liq holatlarga munosabat emas. Shu kabi baxtsiz hodisalar har kuni sodir bo'ladi va muntazam ravishda ijtimoiy tarmoqlarga fotosurat va videolar joylanadi. Ayanchli manzaralar aks etgan suratlar yoki videolavhalar bizga nima beradi? Biz shu qadar tubanlashib ketdikmiki, o'zgalar qismatini tezlikda ommaga yetkazishga shoshilamiz?! Bunday voqealar odamlarni ogohlikka chaqirishi mumkin dersiz, lekin ogohlik va xushyorlikka chaqiruvchi, aniq tafsilotlarni yetkazuvchi organlar bor. Ularning munosabati va tafsilotlariga ko'ra xushyor tortsak va xulosa qilsak ham baxtsiz hodisalarning oldi olinadi.

Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz. Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir. Ijtimoiy tarmoqlar tubanlik girdobiga giriftor etuvchi mafkurachilarning asosiy dastaklaridan biriligi hech kimga sir emas. Binobarin, bu holat har birimizdan tahdidlarga nisbatan muntazam ogohlikni talab etmoqda.

**Doniyor YUSUPOV,**
**deputat**

# IMTIYOZLI TAVSIYANOMALAR TOPSHIRILDI

***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta'lim hamda oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar topshirish marosimi bo'lib o'tdi.***



Qurolli Kuchlar Akademiyasida haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan 25 nafar, shuningdek, Qurolli Kuchlari safidan rezervga bo'shatilgan 3 nafar harbiy xizmatchining farzandlariga oliy ta'lim va oliy harbiy ta'lim muassasalariga kirishi uchun kvotalar topshirildi.

— Oila a'zolarimizga ko'rsatilayotgan e'tibor, ijtimoiy himoyadan juda mamnunmiz, deydi podpolkovnik Aziz Mirzayev. — Qizim ham yaratilgan imkoniyatdan foydalanib bu yil talaba degan nomga ega bo'ladi, albatta.

**Boburmirzo SOLIYEV,**
**Qurolli Kuchlar Akademiyasi yoshlar yetakchisi, kapitan**



# ILK MAROTABA BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALAR O'RTASIDA VELOMARAFON TASHKIL ETILDI

***O'zbekiston velosiped sporti federatsiyasi tashabbusi bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda YXHTning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlab o'tkazilgan mazkur velomarafonda 65 nafar o'g'il-qiz o'zaro bahslashdi.***

Tadbirning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Raisi, O'zbekiston velosiped sporti federatsiyasi raisi Tanzila Norboyeva so'zga chiqib, mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi hamda sog'lom, yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berilayotganini ta'kidladi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda, farzandlarimizni kichikligidanoq sportga oshno qilib ulg'aytirishda bu kabi tadbirlar muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi.

Prezidentimizning 2020-yil 30-oktabrdagi «Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonida ham bir qator, xususan velosiped sport turini rivojlantirish yuzasidan muhim vazifalar belgilangan.

– Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Turizm va sport vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda YXHTning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari sport bilan shug'ullanishi uchun ularni zamonaviy begovellar – bolalar uchun pedalsiz velosipedlar bilan ta'minlash, O'zbekistonda birinchi bolalar velomarafonini o'tkazish bo'yicha memorandum imzolangan edi, – deydi O'zbekiston velosiped sporti federatsiyasi bosh kotibi Kozim O'rinboyxo'jayev. – Memorandum doirasida 2021-yildan boshlab respublikamizning barcha hududlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich begovellar bilan ta'minlash ko'zda tutilgan.

Loyiha doirasida Toshkent shahridagi 13 ta maktabgacha ta'lim tashkilotiga dastlabki 400 ta begovel topshirilgan edi. Bugun mazkur maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari ham velomarafonda ishtirok etdi. Yuqorida keltirilgan memorandumga ko'ra, endilikda bog'cha bolalari o'rtasida ham muntazam velomarafonlar tashkil etiladi.

O'zbekiston milliy terma jamoasi murabbiyi Leysan



Xaziyevaning ta'kidlashicha, bola odatdagi velosipedga qaraganda begovelda muvozanatni saqlashni oson o'zlashtiradi, tanasini boshqarishni va harakatlarini tezlikda muvofiqlashtirishni o'rganadi. Shuningdek, begovel bolaning mushak-skelet tizimini mukammal darajada rivojlantiradi.

Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'rtasida «Kelajakka yashil qadam» shiori ostida o'tkazilgan mazkur velomarafon ishtirokchilar qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Tadbir so'ngida velomarafon ishtirokchilari – bolajonlarga esdalik medallari, sovg'alar topshirildi hamda ular uchun ko'ngilochar dasturlar tashkil etildi.

**Mohigul QOSIMOVA,**
**O'zA**

ASLIYATDAN TARJIMA

**Arkadiy AVERCHENKO**

# NOUMID

*(hikoya)*

I

Poyezd sekingina joyidan siljidi.

Ikki xonali lyuks vagonga men, doʻstim va notanish odam ketma-ket kirdik va yumshoq oʻrindiqlarga joylashdik: men tashqarini tomosha qilib ketish ilinjida deraza oldiga, qadrdonim Nezapyatkin oʻng tomonimga, roʻparamizdagi doʻstimning joyiga esa oʻsha notanish odam oʻtirdi. Bu odamni zimdan kuzatar ekanman, ayyorona koʻzlari tez-tez derazadan tashqariga qarayotganini, xuddi odamlar orasidan kimnidir izlayotgandek alanglayotganini sezdim.

Egniga bejirimgina qora palto kiygan bu odam, boʻyniga shundayin ajoyib sharf oʻrab olgandiki, ozgʻinligiga kelishmagan bu ishi bilan u xuddi gʻaltakka oʻxshab koʻrindi koʻzimga.

Poyezd yurishi bilanoq men yoqtirgan jurnalimni koʻkrak choʻntagimdan chiqarib oynaga yanada yaqinlashdim va koʻz yugurtira boshladim.

— Biz oʻz salomatligimizga qanchalik zarar beramiz-a, afsuski buni oʻzimiz bilmaymiz-da, — soʻz boshladi notanish odam menga tomon yuzlanib. Unga hayron tikilib:

— Eshitaman janob, tushunolmadim, — dedim.

— Ha, mana masalan siz oʻqiyapsiz... Axir bilmaysizmi, harakatlanayotgan paytda nimadir oʻqish koʻzlarni oʻldiradi.

— Oʻldiradi?

— Shunday, shunday. Ha, barchangiz janoblar bunga ahamiyat bermaysiz... Bir nemis olimi menga bir safar harakatlanayotgan vaqtda kitob yoki boshqa nimadir oʻqish zarar ekanini aytgandi. Koʻzlarni bunday qilib sekin-sekin zaharlagandan koʻra bira toʻla kislota quyib, kuydirgan ma'qul, degandi u. Qalay, yaxshi taklif-a, — iljaydi u.

— Baribir anglay olmadim, oʻqishning zarari nima?

— Oʻqishning qanday zarari bor deysizmi? Unda quloq soling. Bilasizki, koʻzlarimiz linzalari maxsus suyuqlik pardalaridan iborat deylik. Siz harakat paytida nimadir oʻqisangiz u pardalar chayqalish natijasida torayib, quriy boshlaydi, shunda odam koʻzlarida ogʻriqli achishish sezadi. Keyinchalik esa pardalar yoriladi hattoki. Axir bu qanchalik zarar, koʻryapsizmi? Bir kuni ertalab turganingizda qaraysizki koʻzlaringiz koʻrmay qoladi butkul. Bunday paytda sizga tabiiyki hech kim yordam berolmaydi. Masalan, mana siz, koʻzlaringizda achishish sezasizmi hozir?

— Ha... Shunday shekilli... Salpal ogʻriq bor, — deya ohista gapni yakunlamoqchi boʻldim.

— Koʻrdingizmi, sizda boshlanib boʻlgan hammasi, — dedi doʻrillagan ovozini battar doʻrillatib.

Soʻngra birdan jimib qoldi. Men tezlik bilan jurnalni varaqladim, oʻqishni qanchalik istasam-da, uning oldida bu ishni qilish bema'nilikday tuyuldi va gazetani yuqoriga, jomadonlarim yoniga irgʻitdim.

— Ruxsat berasizmi, janob, jurnalingizni bir varaqlab koʻrsam? — soʻradi haligi notanish.

— Mayli, bemalol. Lekin siz koʻzlaringizga zarar berib qoʻyasiz-ku...

— Ha, xavotir olmang, mening koʻzlarim butkul zararlanib boʻlgan. Bundan buyogʻiga meni faqat oʻlim zararlay oladi xolos. Chunki bir tanishim taklifi bilan bir martagina kokain qabul qilgandim. Bir martasi ham yetarli ekan, xumoriga chidab boʻlmasdi. Buni yoʻq qilish uchun oʻtgan yili yozda Samaraga borib muzlagan daryodan teshik ochib choʻmildim. Bu meni rayimdan qaytarishiga ishongandim. Yoʻq, aslo. Battar boʻlsa boʻldi, lekin tuzalmadim. Bir safar Petrogradda tashnalikka chidolmasdan oʻlgan odamning choʻntagidan sigaretalarni oʻgʻirlab chekkanman hatto, balki bu oʻgʻirlik ham sanalmas, chunki u oʻlib boʻlgandi-da...

Bu gaplarni koʻzlari olayib maroq bilan tinglayotgan Nezapyatkin birdan oh tortib, qoʻllarini boshiga qoʻydi:

— Yo Xudoyim, qanday dahshat. Giyohvandmisiz?

— Taassufki shunday, hali hamon tuzalganim yoʻq. Bu xastalikda yashirin va davolab boʻlmas xavflar mavjud. Masalan, siz deraza yonida oʻtiribsiz. U yerdan esa oz boʻlsa-da sovuqqina shamol kelib turibdi. Siz "toza havo" atayotgan bu sovuq shamol esa burningiz orqali kirib, toʻgʻri oʻpkangizga yoʻl olgan. Shundan keyin esa oʻpka tomirlari shamollashi yuzaga keladi, oʻpkada shishlar, yoriqlar paydo boʻladi, soʻngra turli shifo bilmas kasalliklar, masalan, gemoptizi, gemo bir balo, xullas-da... Janob, bilingki oʻpka kasalliklari ham giyohvandlikdan sira qolishmaydi.

— Nima ham qila olardik, — dedim unga ayni daqiqalarda toza havoga juda muhtojligimni bildirib, — axir, boshqa qayerda oʻtiramiz?

— Istasangiz, oʻrinlarni almashamiz, zarar boʻlsa menga boʻlsin, — dedi u qahramonlarcha, Nezapyatkinning joyini koʻrsatib "keling", degan ishorani qildi.

— Biroq sizning oʻpkangiz...

— E, oʻpkamga rahmim kelmaydi, — dedi u gapimni naq oʻrtadan boʻlib, — u tugab bitgan. Xavotir olmay qoʻya qoling mendan. Konstantinopol qish kechalarining birida yupqa kurtka bilan ikki kun tashqarida, qahratonda qolib ketganman. Shundan beri oʻpkam hech narsaga yaramay qolgan. Nimayam qilardim. Keling yaxshisi oʻrinlarni almashamiz.

Biz soʻppayib u oʻtirgan tomonga oʻtdik.

— Bilasizmi marhamatli janob, — dedi doʻstim notanish odamga boshini koʻtarib, — toʻgʻri, u mening doʻstim, jonday yaqinim, lekin shunday odam uchun ham men oʻz jonimni, tanamni xavfga qoʻymagan boʻlardim.

— Mayli, hechqisi yoʻq, — dedi notanish kishi qurib qolgan choʻpday qoʻllarini bir silkib.

U derazaga yaqinroq oʻtirib, sovuq havodan chuqur ichiga tortdi, jurnalimni ochib zoʻr qiziqqonlik bilan oʻqiy boshladi.

II

Birinchi marta poyezdda nimadir oʻqimasdan ketyapman, anglaganim birgina shu — juda zerikarli. Notanish odam esa maroq bilan jurnal varaqlar, goh-gohida men va doʻstimni koʻz ostidan kuzatib qoʻyardi. Men bu zerikarli onlarni salgina boʻlsa-da buzish ilinjida Nezapyatkinga luqmalar otdim:

— Qachon Tbilisida boʻlarkanmiz-a?

— Hali-beri yetib bormasak kerak, yoʻl uzoq deb eshitganman. — dedi u beparvolik bilan.

— Vaqt oʻtmayotganday tuyulyapti menga, — xoʻrsindim-u koʻzoynagimni yechib, tashqarini koʻrish uchun deraza tomon qaradim.

— Ha, nimasini aytasiz, juda imillayapti soat millari.

— Bu poyezdmas, aravaga oʻxshaydi koʻproq, juda-juda sekin yuryapti.

— Nimasini aytasiz, yurayotganmas, sudralayotganga oʻxshaymiz xuddi.

— Lekin qara, biz taraflarda hali qish tugamagan boʻlsayam, bu yerlarga bahor kelib qolibdi.

— Ha, toʻgʻri, — dedi u ham oynadan tashqari qarashga urinib, — anavi daraxtlarning gullaganini qarang, sutday oppoq.

— Ha juda ulkan va chiroyli, — qoʻshib qoʻydim.

Notanish odam jurnalni yopib menga uzatdi, ogʻzini katta ochib esnab, mening yumshoqqina oʻrnimga choʻzildi.

— Vaqtning tez oʻtishini qarang-a, bir pasda uxlaydigan vaqtim boʻlibdi, — dedi va koʻzini uni diqqat bilan kuzatayotgan Nezapyatkinga qadadi:

— Bu Rossiyadagi eng yomon yoʻl, shu uchun ham sekin yuryapti poyezd.

— Nimaga? — yana doʻstimning koʻzlari olaydi.

— Nahot eshitmagansiz? Deyarli har kungi reyslarda poyezdlar toʻqnashuvi sodir boʻladi bu yoʻlda.

— Gaplaringiz yolgʻon, — soʻzida qat'iy turdi Nezapyatkin, — Agar shunday boʻlsa, nega gazetalarda oʻqimaganman, eshitmaganman shu paytgacha bu haqda?

— Oʻzingiz bilasiz, buni yashiradi vokzal rahbariyati, xabar topganlarning esa ogʻzini pul bilan moylaydi, chunki shunday boʻlganini odamlar eshitsa poyezdlarga chiqmay qoʻyishadi. Oʻzingiz oʻylang, qa-a-ancha qurbon boʻladi axir bitta halokatda...

— Dahshat, juda dahshat-ku, — dami ichiga tushgan doʻstim koʻzlarini menga olaytirdi, — Xudo asrasin.

— Eng yomoni bumas, azizim, eng yomoni, mana, — barmoqlarini vagon devoriga niqtadi, — mana bu vagon devoriga odatda olddan yo orqadan boshqa bir poyezd kelib urilsa, tamom.

— Nima tamom?

— Gʻalchamisiz? U poyezd katta tezlikda keladi va bizning poyezdga uriladi, tabiiy holatda qoʻshni devor bizning devorga qapishadi, qoʻshilgan devorlar oyoqlarimizni iyagimizgacha olib kelib yopishtiradi.

— Keyin nima boʻladi, keyin? — dedi devor yonidan sal tisarilib battar qoʻrquvga tushayotgan Nezapyatkin.

— Nima boʻlardi? Masalan, oyoqlaringiz qorningizni teshib ichaklaringizni salla qilib oʻraydi, bira toʻla jigaringizni ham sugʻurib tashqariga olib chiqadi. Qarabsizki, sizdan ajoyib munajjimlar teleskopi tayyor. Yana bilasizmi... Bunday paytda odam tabiatning naqadar ojiz boʻlagi ekanini his qilasiz.

Men ham, doʻstim ham bu gaplarni eshitgandan tushkunlikka tushdik, nafas ham chiqarmasdan qotib qoldik.

— Bundan omon qolganlar esa, — "omon qolgan" jumlasini eshitib yana uning umidvor soʻzlariga berildik, — bir umr shol boʻlib qolishadi, ha-ha, shunday, bir tanishim yaqinda olamdan oʻtdi, qaysidir yil xuddi shu yoʻlda shunday halokatga uchragandi.

— Aytingchi, marhamatli janob, — xuddi uni ayni shu odam qutqara oladiganday yolvorish ohangida soʻz ochdi Nezapyatkin, — agar halokat paytida odam anavi yoʻlakda turgan boʻlsa, xavf darajasi qanday boʻladi?

— Oʻzingiz tasavvur qiling. Men orqa yoki oldidan kelib urilsa, devorlarni qapishtirib, ustimizga qulatadi dedim, demak yoʻlakda devor yoʻq, devor yoʻqmi bu qaysidir ma'noda xavfsiz degani. Men Nouvzevskda bir odamni bilaman. U mana shu yoʻlda yuz bergan halokatlarning birida omon qolganlardan. U qanday qilib sogʻ qolgan deysizmi? Chunki u halokat paytida yoʻlakda boʻlgan. Familiyasi, adashmasam, Semyonov edi.

Bu soʻzlardan battar qoʻrquvga tushib doʻstim bilan bir-birimizga najot kutib termuldik.

Biz oʻzimizni mard koʻrsatish uchun uch daqiqa chidab, xonadan chiqmadik. Axiyri oʻzim qaror qildim va:

— Oyoqlarim butunlay uvishib qoldi, balki yoʻlakka chiqib, biroz aylanib kelarman, — deya oyoqqa qalqdim.

— Men ham siz bilan boraman, — Nezapyatkin ham oʻrnidan shoshilib turdi, — sigaret ham chekib kelardim bahonada.

III

Vagon yoʻlagiga chiqdik. Qadrdonim qalin sigarasini lablariga qistirib, menga ham bir dona uzatdi.

— Oling sizam, asablar biroz tinchlanadi, — dedi uyquchan koʻzlarini ishqalab.

Men sigaretni olmasdan, chekish mumkinmas degan yozuvga koʻzlarim bilan imladim.

U ishoramga beparvolik qilib, oʻzini bosish uchun sigaretasini olovlatdi:

— Nima deb oʻylaysiz, u bizni qoʻrqoq deb oʻylab boʻldi shekilli, toʻgʻrimi?

— Ha, menam shuni oʻylayapman. Har holda uch daqiqa boʻlsa ham oʻtirdik-ku, balki unday oʻylamas.

— Uning aqli joyidamas shekilli, gaplari tuturiqsiz, lekin odamni yuragini yorib yubordi rosa, shuncha narsani bilarkan, lekin oʻlimdan qoʻrqmasligiga qoyil qoldim. Balki u bilan gaplasharsiz oʻrnimizni bersa biroz dam olarmidik, hech qursa oʻn-oʻn besh daqiqa, — dedi va notanish kimsaning nima bilan bandligini koʻrish uchun xona eshigiga boshini suqdi: — Sizning yumshoq



o'rningizda uxlab yotibdi, — dedi boshini chiqarib.

— Mayli, u yotaversin. Derazaga yaqinroq kel, tashqarini bir qara.

Tashqarida oxiri ko'rinmas dasht, ora-orada esa bir ikki uy chiroqlari yonib turgani ko'rinardi.

— Ha, rostdan ham bu yerlarning tabiati boshqacha ekan. Janubga oz qoldik chamamda, issiq havo taftini sezyapman.

— Yuragim siqilib ketdi. Ehtimol mana bu oynani ocharmiz. Toza havo kirarmidi ichkariga.

— Yo tavba, kim bizni otadi axir?

— Ularni kunduzlari aniq ko'rish mumkin: mahalliy aholi. Axir ikki kun oldingi gazetada, yo'q, o'zi davriy nashrlar ko'p yozishgan bu yerdagi qurbonlar haqida... O'qimaganmisiz?

— Yo'q, xabarimiz yo'q, — deya ikkalamiz ham kapalagimiz uchib, derazadan yiroqlashdik.

— Xullas, yaqinda bir arabistonlik ham derazani ochib xuddi shunday deraza yonida turgan. U ham o'limoldi Kavkazning toza havosidan biroz hidlashga ulgurgan, qayerdandir paq etgan ovoz eshitilgan-u shu yerning o'zida jon bergan bechora. O'q shundoq miyasini teshib o'tgan ekan. Familiyasi Aziyenshtukmi, vallohu alam, Aziyentushmi, xullas-da...

— Yo Xudoyim, bu yana qanaqasi bo'ldi?

— Hayron qolishning keragi yo'q. O'q uzish bu yerliklarning qadimdan kelayotgan an'anasi. Qishloqlarda kim ko'proq odamni mo'ljalga olib, urib tushirsa, hurmatga sazovor bo'ladi. Kimki bir oyda o'ntadan kam odamni nishonga olsa, u oilaga qiz berishmaydi, u oiladan qiz ham olishmaydi.

— Xudo saqlasin. Keling, yaxshisi derazani yopamiz, Nezapyatkin, — dedim talmovsirab.

# ODAM

— Deraza ochilmasa keragov, axir poyezd hali qishki holatda-ku.

— To'xta-chi, bir ochishga urinib ko'ray, — deraza qulfini ocha boshladim.

— To'xtang, kimdir buni ko'rib qolsa, nima deymiz, axir mumkinmas.

— Dod-voyni qo'ysang-chi, kimdir ko'rsa biz kelishimizdan avval ochilganini aytamiz.

Deraza qulfi sharaqlab ochilib yuzimizga salqin dasht va bahor havosi urildi.

— Qanday ajoyib havo-ya. Senam his qilyapsanmi, qanday musaffo havo. Bu Kavkaz degani do'stim, Kavkaz.

— Tanga yoquvchi pokizalik.

Tun suratiga mos alfozda olis-olislardan baland-baland tog'lar ko'rinar, yer esa sof havodan nafas olayotganga o'xshab titrab-titrab qo'yardi.

Ikki soatlarcha tashqariga termulgancha Kavkaz havosidan to'yib-to'yib nafas olib, gaplashmasdan turdik. Bu sukunatni orqadan do'rillagan ovoz buzdi:

— U yerda nima qilyapsizlar? — notanish odam joyidan turib, biz tomonga keldi.

— Sizam sezyapsizmi janob, qarang qanday ajoyib havo, — dedim men.

— Yordam bersangiz, menam mana bu derazani ochsam, keling do'stim, — meni chorladi keyingi deraza yoniga.

— Mumkinmas janob, — e'tiroz bildirdi Nezapyatkin. — Poyezd qishga moslangan axir, mana bittasini ochdik, hammamizga yetadi shu.

— O, Kavkaz. — haligi kishining yana gap xaltasi ochildi, — bir vaqtning o'zida ham ajoyib, ham o'limlarga to'la mamlakat. Men, bu o'lkani piton iloniga o'xshataman, chiroyli, ko'rkam, silab ko'rging keladi odam, biroq xuddi shu ilonday zaharli, bir chaqsa tamom, til tortmay o'lasan.

— Nima o'ladi, kim o'ladi, tushunolmadim, — angraydi do'stim.

— Kavkaz, Kavkaz. Axir bu o'lim ma'budi boshqaradigan o'lka-ku, nahot bilmaysiz. Masalan, siz deraza qoshida toza havodan hech kimga zarar bermay simirib turibsiz, birdan paq etgan ovoz eshitiladi va yerga qulaysiz.

— To'xtang, to'xtang, bu men uchun yaxshi imkoniyat, ajalim balki shu yerliklarning miltig'ida mudrab yotgandir shu lahzalarda. Mayli, o'limim evaziga qaysidir oila baxtli bo'lsin, men roziman. Do'stlarim, ammo sizlarga bir vasiyatim bor. Agar bugun kunim yetgan bo'lsa, jomadonlarimni olib, Tbilisiga, Golovinskiy ko'chasi, 11-uyga eltib bersangizlar, qabul qiluvchi Mixayonko ismli odam. Maylimi?

Avvallari hech qachon o'zining o'limini bunday xotirjam kutyotgan va mehr bilan vasiyat qoldirgan odamni uchratmagandim.

Qanchalik uni deraza yonidan ketkazishga urinmaylik, joyidan jilmadi. Bilganini qilsin deb ichkariga, o'z to'shaklarimizga kirib yotdik.

IV

Xudoga shukr, poyezdimiz talofatsiz, qurbonlarsiz sog'-omon Tbilisiga yetib keldi. Mehmonxonaga borish uchun foytunga chiqayotganimizda o'sha notanish odamning baland bo'yli, go'zal bir ayol bilan quchoqlashib ko'rishayotganini ko'rib qoldik.

— Safaringiz qanday bo'ldi, azizim? — dedi uning ozg'in yuzlaridan o'pib chiroyli ayol.

— Ajoyib. Har qachongidan ham ajoyib, xuddi sodda va ishonuvchan yo'ldoshlarim kabi, — dedi u bizni ko'rsatib, ayol esa bizga qarab mayin jilmaydi, — shunday odamlar hali hamon bor ekan, Rossiya bo'ylab biletsiz ham bemalol sayohat qilish mumkin.

Nezapyatkin foytun derazasidan boshini olib, joyiga o'tirdi:

— Uning so'zlarini chalaroq eshitdim, ammo qarang bizga shuncha yaxshilik qilibam yana bizni ayoliga maqtayapti. Menimcha biz unga ancha xush keldik. Siz ham shunday fikrdamisiz?

Men yelka qisdim:

— Albatta, axir bizdan yomon safardosh chiqmasligi aniq-ku...

**Rus tilidan**
**Rahmat BOBOJON tarjimasi.**

ACHCHIQTOSH

# BU ASAR MUALLIFIGA HAM, TILIMIZGA HAM HURMATSIZLIK!

***Sinf rahbarimiz oliy toifali fizika fani o'qituvchisi edi. Darsni ham, o'quvchilar bilan til topishishni ham qoyillatardi. Menga ustozning doskaga chiroyli va tartib bilan yozishidan tortib, masalalarni og'zaki tuza olishigacha yoqardi. Faqat bitta narsani – ismimni xato yozishini yoqtirmasdim...***

Maktabda har chorak yakunlanganda ota-onalar yig'ilishi bo'lardi. Yig'ilishda ota-onalarga farzandlari yaxshi o'qiganligi uchun tantanali ravishda tashakkurnomalar topshirilardi. Ota-onamning ham ular qatorida bo'lishi meni g'oyat mamnun etardi. Yig'ilishga ko'proq onam borardi. Yig'ilish darsdan keyin bo'lgani uchun o'quvchilarga javob berib yuborishardi. Men onamning kelishini intizorlik bilan kutardim va kelgach, tashakkurnomani faxr bilan ichimda o'qirdim: "Hurmatli Alisher Jumaboyev! Farzandingiz **Musurmonova Holida**ning ushbu chorakni a'lo baholarga yakunlaganligi, namunali xulqi va jamoat ishlaridagi faolligi uchun sizga 87-maktab ma'muriyati ushbu tashakkurnomani topshiradi". Ha, ba'zida ismimni shunday xato yozishardi. Lekin men bundan xafa bo'lmasdim. Chunki o'qituvchimizning fizik ekanligini, fiziklar esa imlo qoidalari bilan ko'p shug'ullanmasligini yaxshi bilardim-da.

Gohida ba'zi so'zlarning qanday yozilishi ustidan dugonam bilan bahslashib qolar edik. Va bu so'zlarning yozilishini darsliklardan qidirardik. Afsuski, darsliklar ham xatolardan xoli emasdi (bunga hamma ko'nikib ham qolgandi). O'shanda faqat imlo lug'ati orqaligina kim g'olib bo'lganligini aniqlardik.

Bir yili respublikamizning barcha maktablariga badiiy asarlar tortiq qilindi. Shu jumladan, bizning maktabga ham. Men ularning orasidan O'lmas Umarbekovning mashhur "Odam bo'lish qiyin" romanini topib o'qidim. Asarning syujeti, qahramonlar taqdiri, yozuvchining so'z qo'llash mahorati meni o'ziga rom etar, lekin ba'zi so'zlarning imlo xatolari bilan yozilgani hafsalamni pir qilardi (dastlab xatoliklarga e'tibor bermaslikka harakat qildim. Negaki darsliklardagi xatoliklarga ko'z yumib o'rgangan edik-da). Kitob chop etilgan nashriyotga qaradim: "YOSHLAR NASHRIYOT UYI, TOSHKENT-2018". Taajjubim bisyor ortdi. Asarning boshidan oxiriga qadar *"X - chuqur til orqa undoshi"* va *"h - bo'g'iz undoshi"* o'rtasidagi farqlar e'tiborga olinmaganidan kelib chiqqan imloviy xatolar. Mana ayrimlari:

**Birov hursand, birov hafa (183-bet); *Xo'p, xayr. Svetik uyda yolg'iz qolgan. — Hayr. (184-bet); *Gulchehra endi mendan hafa bo'lmasa ham bo'ladi. (185-bet); *Tanlovda bizning studentimiz g'olib chiqqanligidan men nihoyatda hursandman. (190-bet) va hokazo...*

Quyidagi xatoliklar esa so'zlarning ma'no farqlash vazifasi buzilishiga olib kelgan: *Qosimjon odamlar orasida boshini ham qilib turgan Samadni ko'rib uning yoniga bordi* (201-bet).

Xam qilmoq – boshini egib, yerga qarab turish. Ham – yuklama; yordamchi so'z turkumi. So'z yoki gaplarga qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiladi.

Gulchehraning o'limidan ruhiy iztirobga tushgan Samadning ahvoli hatto uning boshini ham tik tuta olmaslik darajasiga yetganidan bilinadi. Ammo ko'rib turganingizdek, yuqoridagi xatolik yozuvchi ko'zlagan mazmundan yiroqlashib, ma'noning to'g'ri anglashilmasligiga olib kelgan.

Axir nega yangi chop etilayotgan badiiy asarlarda bunday xatoliklarga yo'l qo'yilyapti? Bu asar muallifi va tilimizga hurmatsizlik emasmi? Qachongacha bunday xatoliklarga panja orasidan qaraymiz?

Ona tili o'qituvchimiz bizga so'zlarni o'rinli qo'llash va imloviy jihatdan to'g'ri yozish o'z xalqimizga, tilimizga, Vatanimizga muhabbatni hamda hurmatni ko'rsatadi, deya uqtirar edi. Haqiqatan, o'z ona tilini sevuvchi inson joriy etilgan imlo qoidalariga amal qila olishi darkor. Bu ayni paytda shaxsning savodxonlik darajasini ham belgilab beradi.

Men kelajakda yana kim bilandir bahslashib qolib biror so'zning qanday yozilishini isbotlamoqchi bo'lsam, faqat imlo lug'atigagina emas respublikamiz hududida chop etilayotgan barcha kitoblarga tayana olishni istar edim. Negaki har bitta kitob, har bitta so'z ona tilimiz va millatimizning bebaho xazinasi-ku. Bu xazinani asrash siz bilan bizga bog'liq!

**XOLIDA MUSURMONOVA,**
**O'zJOKU talabasi**

# "YOSHLAR OYLIGI" O'TKAZILADI

***Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni 2017-yildan boshlab yurtimizda 30-iyun — Yoshlar kuni sifatida nishonlab kelinayotganida ham ko'rish mumkin.***

Joriy yilda ham bu bayramni ko'tarinki ruhda o'tkazish, yoshlarga barcha sohada keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida iyun oyi davomida barcha hududlarda "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida "Yoshlar oyligi" tashkil etiladi.

"Yoshlar oyligi" doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasida "Bo'zatov Respublika yoshlar ovozi" festivali, Sirdaryo viloyatida "Bag'rikeng O'zbekiston — umumiy uyimiz" millatlararo do'stlik festivali, Farg'ona viloyatida "Talabalar bahori — 2021" festivali, Surxondaryo viloyatida "Munozara" intellektual respublika turniri, Xorazm viloyatida "Yoshlar — O'zbekistonning bebaho xazinasi" festivali kabi barcha viloyatlarni qamrab oladigan yoshlar festivallari, tanlovlar, uchrashuvlar va aksiyalar tashkil etiladi. Muxtasar aytganda, respublika bo'yicha jami 4 million 300 mingdan ziyod (14-30 yoshdagilarning 41 foizi) yoshlarni 6 ta ustuvor yo'nalishdagi loyiha va tadbirlar orqali qamrab olish rejalashtirilgan.

## Yoshlar oyligi doirasida hududlarda o'tkaziladigan tadbir va loyihalar haqida

## MA'LUMOT

| Sana | Tadbir | Ishtirokchilar | Joy |
|---|---|---|---|
| 5 IYUN | MOTIVATSION OCHIQ MULOQOT (SPORT) | A.Abduhakimov (Turizm va sport vaziri), R.Irmatov (MOQ raisining birinchi o'rinbosari), D.Rahmatova (eshkak eshish bo'yicha Osiyo va Jahon chempioni) | Buxoro viloyati |
| 6 IYUN | MOTIVATSION OCHIQ MULOQOT (TA'LIM) | Sh.Shermatov (XTV vaziri), H.Umarova (PIMA direktori), olimpiada g'oliblari | Jizzax viloyati |
| 10-12 IYUN | "RESPUBLIKA YOSHLAR OVOZI" FESTIVALI | | Qoraqalpog'iston Respublikasi |
| 12-13 IYUN | "O'ZBEKISTON BIRINCHILIGI" MUSOBAQASI (BASKETBOL) | | Toshkent shahri |
| 15 IYUN | MOTIVATSION OCHIQ MULOQOT (TA'LIM) | A.Toshqulov (OTV vaziri), K.Xonmov (Vestminster universiteti rektori), olimpiada g'oliblari | Qashqadaryo viloyati |
| 16 IYUN | MOTIVATSION OCHIQ MULOQOT (MADANIYAT) | Sh.Sadiqov (AKT vaziri), F.Ibragimov (IT park direktori), dasturchi yoshlar | Navoiy viloyati |
| 16 IYUN | "YOSHOILA.UZ" ELEKTRON PLATFORMASI TAQDIMOTI | | Samarqand viloyati |
| 17 IYUN | MOTIVATSION OCHIQ MULOQOT (IT) | Sh.Sadiqov (AKT vaziri), F.Ibragimov (IT park direktori), dasturchi yoshlar | Navoiy viloyati |
| 17-19 IYUN | "YOSHLAR VA QONUN" KO'RIK-TANLOVI RESPUBLIKA BOSQICHI | | Andijon viloyati |
| 19 IYUN | MOTIVATSION OCHIQ MULOQOT (HUQUQ) | R.Davletov (Adliya vaziri), R.Kusherbaev (Oliy Majlis deputati) R.Xakimov (TDYuU rektori) | Farg'ona viloyati |
| 22 IYUN | "YIL YETAKCHISI" KO'RIK-TANLOVI RESPUBLIKA BOSQICHI | | Xorazm viloyati |
| 23 IYUN | "YOSH SHAXMATCHI" CHEMPIONATI RESPUBLIKA BOSQICHI | | Sirdaryo viloyati |
| 26 IYUN | "VELOMARAFON" RESPUBLIKA TURNIRI | | Toshkent viloyati |
| 26 IYUN | "MUNOZARA" INTELLEKTUAL O'YINLARI RESPUBLIKA TURNIRI | | Toshkent shahri |
| 30 IYUN | YOSHLAR SAYLLARI, FESTIVALLAR, GALA-KONSERTLAR | | Barcha hududlarda |

# JAHON CHEMPIONATIDA TURSUNOY JABBOROVA 3 TA OLTIN MEDALGA SAZOVOR BO'LDI

***Toshkentda bo'lib o'tgan yoshlar o'rtasidagi Jahon chempionatida -87 kg vaznda yurtimiz sharafini Tursunoy Jabborova himoya qildi. Va aytish mumkinki, sportchimiz ishonchni to'liq oqladi.***



Tursunoyga dast ko'tarishda ham, siltab ko'tarishda ham teng keladigan raqib topilmadi. Barcha imkoniyatlaridan unumli foydalangan Tursunoy dast ko'tarish mashqida eng yaqin ta'qibchisini 18 kilogrammga ortda qoldirgan bo'lsa, siltab ko'tarishda ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan AQSh termasi vakilidan 15 kg farq bilan birinchi o'rinni egalladi.

Shu tariqa, Tursunoy Jabborova terma jamoamiz hisobiga yana uchta oltin medalni qo'shib qo'ydi.

**YOSHLAR O'RTASIDA JAHON CHEMPIONATI**

Ayollar, -87 kg

1. Tursunoy Jabborova (O'zbekiston) - 244 (111 + 133) kg;
2. Elizabet Ovens (AQSh) - 211 (93 + 118) kg;
3. Yekta Jamali (Eron) - 208 (92 + 116) kg.



*O'zA fotomuxbiri Muhammad AMIN olgan suratlar.*

E'LON

G'opparov Nurali Maxmudjon o'g'liga Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan berilgan 0522 raqamli reyting daftarchasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

Xolmirzayev Sardor Murod o'g'liga Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan berilgan 0873 raqamli reyting daftarchasi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

MUASSIS: O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR: Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB: Yelena KALININA

NAVBATCHI MUHARRIR: Iqbol PARDAYEVA

DIZAYNER: Zafar RO'ZIYEV

TAHRIRIYAT MANZILI: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar: (71) 233-22-16. (71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-655
Adadi – 670
Bosishga topshirish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.02

1 2 3 4 5 6